

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

L.T.Galimullina	
Internal form of phraseological units with the components of precious stones and metals in the english language	1213
A.O.Oxunov	
Ingliz va O'zbek tillarida undov so'zlar (interjection)ning ifodalanishi	1217
M.U.Mamadjanova	
Linguocultural features of the epithets	1221
M.U.Mamadjanova	
Tilshunoslikda epitetning lingvistik tabiati haqidagi turli qarashlar	1224
M.M.Umaralieva	
The significant role of lingua-psychological, pedagogy-didactic, and methodological factors in the planning and implementation of self-directed programs	1227
Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov	
Bit-dars texnologiyasi asosida ijodiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi tahlili	1232
Sh.Z.Xolmatov	
So'z urg'usining nazariy tavsifi va ahamiyati qiyosiy aspektida	1236
M.M.Umaralieva	
A proficient approach to self-directed learning	1241
Sh.F.Latipov	
Grammatical lacunas as markers of cultural and linguistic identity	1246
Sh.F.Latipov	
Lingvistik lakunani aniqlash haqida ayrim tushunchalar	1249
A.A.Qosimov	
Linguo-pragmatic typology of metaphors: the intersection of language and pragmatics	1252
A.A.Qosimov	
A linguo-cultural approach to metaphor classification: unveiling cultural concepts through figurative language	1258
M.G'.Zaylobidinova	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish	1264
Д.Ш.Ибрагимова	
Сущность и структура иноязычной коммуникативной компетенции будущих учителей	1268
Д.Ш.Ибрагимова	
Эффективность использования театрализации в обучении студентов устойчивым базовым английским фразам для чрезвычайных ситуаций	1272
Д.Ш.Ибрагимова, Й.Х.Музаффархонов	
Использование театрализации в процессе формирования речевых навыков у студентов	1278
M.N.Abdulimova	
Theory of cognitive and conceptual metaphors	1282
M.N.Abdulimova	
Analysis of metaphors used in political texts	1286
S.O'.Shermamatova	
Analyses of J.D.Salinger's works	1291
X.Zikiryoxonovna	
Falsafiy-psixologik romanda tush motivi	1295
X.Z.Umarova	
Maktublar – qahramon qalb oynasi	1298
Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov	
Significance of motivation in developing students' creative cooperation skills	1301
S.S.Usmanova	
Jadidchilik va adabiy muhit xususida	1304
V.Abdurakhmanov	
Classification and description of the main alternative issues in social life	1307
R.M.Turdimatova	
The intricacies of irony: types and examples	1311



UO'K: 82-1/-9

FALSAFIY-PSIXOLOGIK ROMANDA TUSH MOTIVI**МОТИВ СНА В ФИЛОСОФО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ РОМАНЕ****DREAM MOTIF IN A PHILOSOPHICAL AND PSYCHOLOGICAL NOVEL****Xurshida ZikiryoXonovna**

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada tushlar poetik vosita sifatida badiiy asarlarning psixologik teranligiga kirishga, xarakter va mavzularning mohiyatini samarali ochishga xizmat qilishi muhokama qilinadi. Ular asarda dramatik keskinlikni yuzaga chiqarib, psixologizmni kuchaytiradi. Syujet komponentlari o'rtasida o'zaro bog'lanishlar yaratib, asar kompozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Аннотация

В данной статье рассматривается, как сновидения как поэтический инструмент служат проникновению в психологическую глубину произведений искусства, эффективно раскрытию сущности персонажей и тем. Они выявляют драматическую напряженность произведения, усиливают психологизм. Он создает взаимосвязи между сюжетными компонентами и служит формированию композиции произведения.

Abstract

This article discusses how dreams, as a poetic tool, serve to penetrate the psychological depth of works of art, to effectively reveal the essence of characters and themes. They bring out the dramatic tension in the work and strengthen psychologism. It creates interconnections between plot components and serves to form the composition of the work.

Kalit so'zlar: Tush, poetik vosita, ruhiy tahlil, psixologizm, kompozitsion vosita, motiv, falsafiy-psixologik roman

Ключевые слова: Сон, поэтический инструмент, психический анализ, психологизм, композиционный инструмент, мотив, философско-психологический роман

Key words: Dream, poetic tool, mental analysis, psychologism, compositional tool, motive, philosophical-psychological novel

KIRISH

Inson murakkab ruhiyat sohibi. Shu sababli inson psixologiyasi hamisha adabiy izlanishlar mavzusi bo'lib xizmat qiladi. Adabiyotshunos olim, H. Umurov, inson – adabiyotning tasvir predmeti ekan, insonning ruhiyatisiz uni yaxlit, bir butun holatda to'liq tasavvur qilish mumkin emas, degan haqli fikrni bayon etgan.[1.7] Darhaqiqat, inson psixikasining tub-tubiga etmay turib, uning borlig'ini to'liq tasvirlab berish mumkin emas. Binobarin, asar qaysi davrda yaratilganidan, qaysi janr yoki uslubga mansubligidan qat'iy nazar, inson psixologiyasi tabiiy ravishda badiiy ifodaga o'z yo'lini topadi. Qahramon ichki olamining yashirin sirlarini oshkor etishda psixologizmning psixologik portret, dialog, monolog, ichki monolog, ong oqimi, tush, gallyutinatsiya, psixologik timsollar, hissiy harakatlar, peyzaj, interyer tasviri kabi poetik vositalari qo'llaniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qadimgi adabiyot namunalaridan ma'lumki, tushning vazifasi asarga fantastik motiv olib kirish bo'lgan. Asar kompozitsion qurilishida tush syujet chizig'ini rivojlantirishda qahramonlar harakatining mantiqida muhim o'rin tutgan. Masalan, Alpomish dostonida Alpomish, Barchin, Qorajon bir vaqtning o'zida ayni bir tushni ko'radilar. Aynan shu tush motivida butun doston voqealari oldindan bashorat qilinib, ramzlar tilida bayon etiladi. Ya'ni doston syujetining butun keyingi voqealari rivoji ana shu parchada ko'rsatib beriladi. Shuning uchun ham ana shu tush parchasini doston syujetining "yadrosi" deb qarash mumkin.[2]

"Tush motivi badiiy asarda ruhiy tahlilning muhim poetik vositalaridan biri sifatida, avvalo, asar qahramonlarining ruhiy kechinmalarini psixologik tahlil qilishga yordam beradi. Tush motivi ko'magida asardagi obrazlarning dilidagi kechinmalari, ular atrofidagi turli muammolar badiiy aks ettiriladi." [3.33]

Psixologik tahlil asosiga qurilgan asarda tushning funksiyasi yanada boshqacharoq tarzda namoyon bo'ladi. Bu xil asarlarda tush ham tashqi jihatdan, ham ichki jihatdan xaqiqatga yaqinroq qilib tasvirlanadi. Qahramon ko'rgan tushining mazmuni asosida uning qalbidagi emotsional tuyg'uning hukmron belgisi aks etadi. Umuman psixologik romanda qahramonning ongli va ongsiz holati mantiqan bir-biriga bog'liq holda to'liq tasvirlanadi.

"Hayotda sodir bo'lgan har qanday voqea zaminida nimadir yotadi. Tushlar ham muayyan zaminga asoslanadi, - deydi A. Ulug'ov. Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" romanida Sulton Mahmudning qo'rqinchli tushlar ko'rish zaminida, albatta, o'ziga xos sabablar turadi. Odil Yoqubov ushbu romanida kishilarga qilingan har qanday zulm, zo'ravonlik izsiz ketmasligi, zolim, kim bo'lishidan qat'i nazar, o'z qilmishlari uchun, albatta, jazoga tortilishiga ishora qiladi." [4]

Tadqiqotchi Sh. Istamova XX asr o'zbek adabiyoti namunalariining syujet qurilishida tush ta'birlaridan poetik vosita sifatida keng miqyosda qo'llanilganligini ta'kidlab, O'. Hoshimov "Ikki eshik" romanida 17 ta, U. Hamdam "Sabo va Samandar romanida 20 ta tush motividan foydalanganligini aytadi." [3.25]

Jahon adabiyoti falsafiy-psixologik romanlarida tush motividan foydalanish hollari ko'p uchraydi. Masalan, XX asr adabiyotiga o'ziga xos yo'nalishni olib kirgan Frans Kafka qalamiga mansub "Jarayon" (The Trial) falsafiy romani qahramoni Jozef K. ismli kishining tushlari butun roman davomida haqiqat bilan xiralashib, uning psixologik holatini, o'zi yashayotgan zolim va absurd tuzumga nisbatan ekzistensial kurashini aks ettiradi. A. Kamyuning ekzistensial romani "Begona" (The Stranger) ning protagonisti, atrof olamdan ruhiy jihatdan ajralib turuvchi, befarq Mersoning tushlari va gallyutsinatsiyasi uning jamiyatdan uzoqlashishi, boshqalalar bilan hissiy bog'lana olmasligini aks ettiradi. Atoqli chex yozuvchisi M. Kunderaning Chexoslovakiyadagi siyosiy notinchliklar fonida sevgi, o'zlik va mavjudlik mavzularini ilgari surgan "Mavjudlikning chidab bo'lmas engilligi" (Unbearable lightness of being) nomli falsafiy-psixologik romanida qahramonlar o'zlarining xohish-istaklari, qo'rquvlari va qat'yatsizliklari bilan kurashar ekanlar, ularning bu kurashlari tufayli yuzaga kelgan ruhiy holatlari tushlarida ham aks etadi. Qahramon Tomasning takrorlanuvchi tushlari u boshidan kechirayotgan ekzistensial tashvishlari natijasidir.

"Tush badiiy asarda ko'proq psixoloik dramatismni kuchaytirishga, asar qismlarini kompozitsion jihatdan mantiqiy izchillikda birlashtirishga, asar voqealari rivojini ta'minlab, muallif – qahramon- kitobxon aloqasini yuzaga chiqarishga ko'mak beradi." [3.15]

Tadqiqotchi Sh. Istamova tushning badiiy asar qurilishida tutgan o'rni va kompozitsion vazifasiga ko'ra 3 xilini tafsiflaydi. Tushlar badiiy asar syujetining yo boshlanishida, yo o'rtasida, yo oxirida kelib, tugunni, voqealar rivojini, echimni hosil qiladi. Asar boshida kelgan tushlar asosan, tugun vazifasini, asar oxirida kelgan tushlar echim vazifasini o'tasa, asar o'rtasida keluvchi tushlarning funksiyasi rang-barangdir. [3.18]

NATIJA VA MUHOKAMA

"Girdob" romanida asar o'rtasida kelgan yagona tush motivi voqealar rivoji ancha jadallagan damda bosh qahramon Azizning xotini Saltanatning o'zi istab-istamay xiyonat botqog'iga botib borayotgan paytda bayon etiladi. Turmush o'rtog'ini Moskvaga, Butunittifoq qishloq xo'jalik Fanlari akademiyasida seleksionerlarning bir haftalik seminar-yig'ilishiga komandirovkaga jo'natgan Saltanat Yo'ldosh bilan oralarida bo'layotgan voqea ayol kishi, ayniqsa eri, bolasi bor ayol kishi uchun kechirilmas gunohligini ham bilar, lekin «xammavaqt shunday davom etmaydi-ku. Ko'ngil ishi, ehtimol, o'z-o'zidan qolib ketar» deb, Yo'ldoshning sovishini kutardi. Aslida bu istagi ham o'zini-o'zi aldashdan iborat edi. Mana shunday ikkilanishlar girdobida qolgan Saltanatning tushi romanda dramatik keskinlikni keltirib chiqaradi.

"O'sha kuni Saltanat juda g'alati tush ko'rib, saharda uyg'onib ketgancha uxlayolmadi. U shahar bo'lib shahar emas, qishloq bo'lib qishloqmas, o'zi ham bilmaydigan noma'lum bir joydamish, Ammo qiy-chuvi shahardan battar emishu atrofda xech kim ko'rinmasmish. Bir zamon tanish ovoz shundoq yaqinginadan "Saltanat!" deb chaqiribdi. Saltanat yuragi shuv etib qarasa, qop-qora tuman, ichidan Aziz chiqib kelayotganmish, xadeb kularmish. Barmog'i bilan imlab, "anavi yoqqa

TILSHUNOSLIK

ketsam qutulamanmi?" deb tumanni ko'rsatarmish. Saltanat: "Kimdan qutulasiz?" deb so'rasa, "Bexzoddan", deb yana kularmish. Keyin men xozir kelaman", deb qorong'ilik ichiga kirib ketibdi-yu, sal o'tmay onasini yetaklab chiqibdi. Saltanat ajablanib, "voy, oyim o'lgan edilar-ku", demoqchi bo'lib turganida, kimdir guvillatib mashina haydab kelib, ikkovini urib majaqlab ketibdi. Keyin bahaybat bir burgut ayri changalida qonga belangan, negadir jimitdekkina bo'lib qolgan Azizni ko'tarib, go'yo Saltanatga «xayr-xayr» deganday qanotlarini silkib, tuman ichidan qora qoya orqasiga o'tib ketibdi... Saltanat «Voydod!» deb qichqirmoqchi bo'lganida... birdan uyg'onib qarasa"[5.187]

Romanda keltirilgan ushbu tush epizodi hayot haqidagi tushunchalari g'arib va bir yoqlama, qat'iyatsiz Saltanatning ichki ziddiyatlari va qo'rquvlarini aks ettiruvchi ramziy ma'noga ega. Na shahar, na qishloqligi no'malum, qayerligini o'zi ham bilmaydigan kimsasiz bir joyda bo'lishi uning yo'qolib borayotgan his-tuyg'ulari va rishtalari uzilib borayotgan oilaviy munosabatlari ifodasi edi. Saltanatning o'zini na u erda, na bu erda hotirjam his qilmayotganligi uning hayotga yengil qarashi, qat'iyatsizligi, noshukrligini, o'z baxtsizligiga boshqalarni aybdor qilishini ko'rsatadi. "Saltanat!" degan tanish ovoz Saltanatdagi hayotini nazorat qiluvchi yuqori kuchga bo'lgan ehtiyojning ifodasi bo'lishi mumkin. Chunki, u muntazam ravishda erining muvaffaqiyatsizliklarini ro'kach qilib, Azizning unga yetarlicha mehr va e'tibor bermayotganidan noliydi. Qorong'i tuman ichidan kulib chiqib kelgan Aziz timsoli Saltanatning xiyonati Azizning or-nomusini, sha'nini bulg'agani va uning ketsam qutulamanmi, deb bergan savoli zamirida xuddiki, Saltanatning oilaviy hayot va onalik ma'suliyatidan qutulishga bo'lgan ongsiz istagini ifodalaydi. To'satdan paydo bo'lgan avtomashina Saltanatning hayotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan keskin o'zgarish bo'lib, mashinaning Aziz va uning onasini urib, majaqlab ketishi bu o'zgarishning fojiviy va dahshatli bo'lishiga ishora edi. Saltanatning tushiga qaynonasi kirishida ham ramziylik bor. Odatda, vafot etgan insonni tushda ko'rish boqiy dunyoga rixlat qilgan insonning ruhi tinch va sakinatda yohud aksincha, bezovta va notinchligidan dalolat qabilida talqin qilinadi. Farzandining oilaviy hayoti darz ketayotganidan bezovta bo'lgan onaizor ruhi kelinining tushiga kiradi. Avtohalokat tushning ramziy ma'nosiga yana bir murakkablik qo'shib, bundan Saltanatning tobora mo'rtlashib borayotgan turmushi va taqdiming oldindan aytib bo'lmaydigan sinovlaridan tashvishini anglash mumkin. Qonga belangan holda ulkan burgut changalida kichrayib borayotgan Azizning bu ko'rinishi Saltanatning o'rtalaridagi munosabatlarda mavjud bo'lgan har qanday noroziliklarga qaramay, erini yo'qotib qo'yishga bo'lgan ongsiz qo'rquvining belgisi edi. Yordam so'rab qichqirmoqchi bo'lishi uning yaqinlashib kelayotgan xavfni angalayotganini bildiradi.

XULOSA

Umuman olganda, bu tush Saltanatning ichki notinchligini, ongli va ongsiz istaklarini, qo'rquv va havotirlarini o'zida mujassam etib, uning hozirgi hayotiy sharoitlaridan noroziligini, o'zi intilayotgan hayot unga baxtsizlik va ko'ngilsizliklar olib kelishiga, o'zi esa bilib turib chog'ni bosayotganligiga ishora beradi. Demak, falsafiy-psixologik romanlarda tush motivi asar mavzusi, personajlar harakati va inson ruhiyatini tadqiqini aks ettiruvchi bir nechta maqsadlarga xizmat qilishi mumkin. "Girdob" romani qahramoni Saltanatning tushi tahlili orqali quyidagilarni aniqladik.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Умунов Х. Бадиий психологизм ва ўзбек романчилиги. Фан, 1983. 7 бет
2. Эшонкул Ж. Ўзбек фольклорига туш ва унинг бадиий талқини. Ўзбекистон Фанлар Академияси «Фан». 2011. С
3. Istamova Sh. Badiiy asarda tushning poetik-kompozitsion vazifalari. F.f.f.d. diss. Samarqand. 2017 33 bet.
4. Жаҳон адабиёти, 2013 йил, 6-сон
5. Усмонов. Ҳ. Гирдоб. Б 187